

BOLTABOY IBROHIMOV

TEATR FAKTURASI

(Applikatsiyalash usullari)

TOSHKENT
«CHASHMA PRINT»
2009

T a q r i z c h i l a r

San'atshunoslik fanlari doktori, professor **T. Bayandiyev**

San'atshunoslik fanlari doktori **D. Rahmatullayeva**

Ushbu qo'llanmada teatr fakturasi ishlash usullari, ularni ishlash texnologiyasi haqida fikr yuritiladi. Uslubiy qo'llanma oliy o'quv yurtlari, san'at va madaniyat kollejlari, akademik litsey o'qituvchilari, talabalari hamda teatr san'ati bilan qiziqqan barcha kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-350-24-3

© B.Ibrohimov, 2009

SAHNA YUZASINI BADIY BEZASH UCHUN FAKTURA YARATISH

O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab tashqi ko'rinishi organik oynaga o'xshash qurilmaviy polikarbonat deb nomlangan yaxlit shaffof plastmassadek yangi material paydo bo'ldi. Texnik xususiyatiga ko'ra u qiyin yonadigan materiallar sirasiga kiritildi.

Rassom A.P.Vasilyev bu materialdan «Qorqiz» spektaklida foydalandi. Natijada, u katta teatr sahnasida o'rmon bilan o'ralgan qorli maydon hosil qildi. Mizgir Qorqizni ta'qib qilish sahnasida o'rmon go'yo jonlanadi va imkon izlab uqubat chekayotgan inson oldida devor bo'lib o'sadi. Shu o'rinda tomoshabinlar ko'z oldida qor bilan qoplangan yerni o'tib bo'lmaydigan o'rmon yalangligiga aylanishi ro'y beradi. Qorli maydonda daraxtlarni paydo bo'lishi quyidagicha hosil qilinadi: sahna yuzasiga ustunlarga mahkamlangan metall ramkalardan pandus qurilmasi o'rnatiladi. Ramkalar birlashtirilganda to'rtburchak yoki kvadrat bo'lib qolmasligi uchun biroz egilgan bo'ladi. Ramkalar ichiga metall bo'laklari qo'yilgan, ular ham karkasni to'rtburchak bo'lib qolishidan asraydi. Pandusning 20x16 m dan iborat. Pastiga ramkalarga mahkamlangan 12 mm qalindlikdagi polikarbonat plitalar teriladi. Bu shaffof plitalar ustidan oq paxtali matodan to'shama yoziladi, uning orqa tomoniga qalin qora matodan qurilgan daraxt shoxlari va tanasi applikatsiyalanadi. Qurilma tagiga yoritish uskunolari o'rnatiladi, ular yoqilganda ijrochilar oyog'i ostida yalang'och daraxt tanalari hosil bo'ladi, ular sahnani o'rab turgan matoli va polixlorvinil orqa parda va kulisga o'xshash bo'ladi. Karkasning applikatsiya bilan birga to'shamaning shaffofligi tufayli daraxt shoxi va tanasi namoyon bo'ladi. Spektaklning badiiy obrazida materialning fakturasi haqida gap ketganda sahna yuzasiga yoyiladigan to'shama

alohida bezak turi ekanligini ta'kidlash zarur. U parket poli, haydalgan yer, tosh yo'l bo'lishi mumkin.

Afsuski, keyingi paytlarda sahnalashtiruvchi rassomlar uning bunday jihatlariga e'tibor bermay qo'ydi, bunda birinchi qatorda o'tirganlarga sahna yuzasi arang ko'rinadi, orqa qatorlardagi tomoshabinlar uchun taxta pol ham yaxshi ko'rinaveradi, degan fikrga tayanib qolindi.

Kinostudiya va televideniyeining suratga oladigan pavilyonlarida yuzalar tez hosil qilinib, tez yig'ib olinadigan haqiqiy parketli yoki turli tasvirlar tushirilgan qog'ozli ham bo'lishi mumkin. Shu o'rinda teatr rassomi imkoniyati cheklangan bo'ladi, chunki u ma'lum bir spektaklga ishlagan to'shamasidan qayta-qayta foydalanishi zarur bo'ladi. Shuning uchun tayyorlangan to'shama tashish va saqlash uchun qulay, sahna polida yaxshi yotadigan, qisqa paytda yig'iladigan va yoyiladigan qilib tayyorlanishi zarur bo'ladi.

Bulardan tashqari sahna to'shamasi aktyorlar qadam tovushlarini yutib yuboradigan bo'lishi kerak. Shu sababdan to'shama qalin va pishiq matodan tayyorlangani ma'qul. Bu maqsadda grafik chizma, bo'yoqli tasvir tushirilgan, applikatsiyalab maysali, qorli, haydalgan yer ko'rinishini olgan paxta matodan foydalanish zarur.

Ba'zan boshqa xususiyatdagi materiallardan ham foydalaniladi. Masalan, maysani tasvirlash uchun bo'yab o'ralgan ip arqondan yoki mochalkadan, qop matolardan foydalanish ham mumkin bo'ladi. Bunda bo'yalgan past navli qo'y junidan ham foydalanish mumkin. Butaforiya maysa asosi bo'lgan to'shamaning o'zi ham turli matolardan tayyorlanadi. Dunyoda eng yaxshi arqon va iplar qilinadigan manila to'qimalari tikilgan xolstli to'shamalar badiiy boy va uzoq foydalani-ladigan mato hisoblanadi. Manila to'qimasining egiluv-

chan iplari maysani yaxshi tasvirlaydi, ular qaynoq bo'yoq va purkagich bilan bo'yaladi.

Sahnada yer yuzasining turli ko'rinishlarini tasvirlash uchun turli usullar qo'llaniladi. Masalan, qorni tasvirlash uchun oq asosli qalin matodan foydalaniladi, qorning uchqunlanishini tasvirlash uchun esa tagiga sellofan qog'oz yozilgan yonlama tikilgan doka ishlatiladi, endigina yoqqan qor oq mato ustidan tikilgan tyul matosi bilan ifodalanadi. Eng muhimi rejissor va rassom sahnada tomoshabinning kayfiyatiga mos tushadigan ko'rinish yaratish orqali spektakl ruhiyatini ochib berishi kerak bo'ladi.

Tekis yuzaga ega bo'lgan, stanoklar bo'rtig'ini yashirmaydigan, birlashgan joyda planshet bilan birga qurilma bezaklarning chokini to'smaydigan matolar ham tasvirlar tushirilgan to'shamadan tashqari fakturali to'shamalar ham aynan shu texnik vazifani bajaradi.

Ko'pincha teatr sahnasidagi to'shamalar tomoshabinlar tomonidan odatiy bir narsa, ko'pam e'tiborni tortavermaydigan u yoki bu holatni ifodalovchi zaruriy vosita sifatida idrok etiladi. P.V. Vilyams ishlagan P.I. Chaykovskiyning «Yevgeniy Onegin» spektaklidagi maysa qoplamini eslash kifoya.

Parda ochilgach, qishloqdagi barin hovlisi ko'z oldimizda gavdalanadi, bunda XIX asr boshidagi butalar va qadimiy, baland daraxtlar ifodalangan, ulardan so'ng chiroyli o'tloq yastanib yotadi. Faqat e'tiborli tomoshabingina ularni yasama bezak ekanligini payqaydi. Yozning oxiri bo'lishiga qaramay o'z yashilligini yo'qotmagan yam-yashil maysa hovli yo'lagini o'rab turadi. Maysa talqini shundaki, maysani ifodalovchi to'shamaning xizmat o'rni ma'lum darajada chekinadi, umuman bezaklarning joylashuvi asosidagi kayfiyat yaratuvchi jihat faol ishtirokchi bo'lib qoladi.

Uzoqlarga cho'zilib ketgan o'tloq, barin uyini o'rab turgan dala, daraxtlar, hovlini qoplab olgan butalarni tasvirlash uchun turli bezak usullaridan foydalanilgan, ya'ni bunda turli xil applikatsiyalar ishlatilgan. May-sa o'sayotgan to'shama titilgan va bo'yalgan arqonlar tikilgan matodan iborat.

A.A. Kronning «Glubokaya razvedka» spektakli uchun to'shama o'zgacha ishlangan. Rassom V.E. Tatlin uni quruq, o't ham o'smaydigan, suvsizlikdan yorilib ketgan Kavkaz yeri sifatida tasvirlaydi.

Spektakl sahnalashtirilayotganda taklif etilgan hay-kaltarosh teatr ustaxonasida loydan yorilib ketgan tup-roqni yasab bergan. So'ngra undan 10 mm gacha qalinlikda pape-masheda nusxa olingan. Unga un yelimi shimdirilgan mato qatlami qog'oz qatlami bilan ustma-ust yopishitirilgan.

Shu usulda yasaliq quritilgan qatlam yog'och kar-kaslarda o'zaro biriktirildi va ushbu usulda tayyorlan-gan relyef ustida aktyorlar bemalol yurish imkoniyati-ga ega bo'ldilar. Pape-mashedan yasalgan bunday yer sathiga to'la ishlov berish uchun unga mato yelimlandi va bo'yab chiqildi.

SAHNA PAVILYONLARI YUZASINI BADIY BEZASH UCHUN FAKTURA YARATISH

Tabiiy materialni sahnada talqin etish tomoshabin tomonidan aktyor o'yini uchun zaruriy fon sifati-da idrok etilishi qanchalik darajada bo'lishini rassom A.D. Goncharov eskizi bo'yicha bezalgan «Yegor Bu-lichev va boshqalar» spektaklidagi Bulichev kabineti misolida ko'rib chiqamiz.

Kabinetga odatdagi savdogarlarga xos mebel qo'yil-gan, u ro'y berayotgan hodisaga alohida xususiyat baxsh etmaydi. Yuqori darajadagi badiiy ifodaviylik kayfiyatini yaratishga imkon beruvchi asosiy faktura va rang xislatlarini go'sht rangini eslatuvchi jigarang-

qizil rangli «teri» qoplangan devor ifodalaydi. Unchalik osoyishtalik baxsh etmaydigan bo'rtma devorning muvaffaqiyatli hal etilishi faktura va rang yechimi bu kabinet xo'jayinining nosog'lomligidan darak beradi. Yana nosoz rangdagi bunday devor ichida Turbach, Znaxarka, Blajenniy kabi personajlarning mavjudligi tushkun kayfiyatni yanada kuchaytiradi.

Shubhasiz, spektakldagi tashqi holat uning ichki mohiyati bilan uyg'unlashuvi tomoshabinga obrazni yuzaki emas, balki rassom tavsiya etayotgandek ichki mohiyatini tushunishga imkon beradi. Tegishli rangga bo'yalgan ip yoki jun gazlama teri qoplangan devor tasvirini yaratish imkonini beradi.

Fanerdan arralab tayyorlangan bo'rtma shablon bo'yicha qo'lda bosmalash usuli bilan unga relyef tasviri berilgan. Bu ish quyidagicha bajariladi: shablona yoyilgan matoga kraxmal yelimi suriladi va qo'lda shablon relyefi bo'ylab siqib chiqiladi. Qurigach va shablondan olinganda ham mato o'sha shaklda qoladi, yuzasi mustahkam va tekis bo'ladi, qo'shimcha bo'yash yo'li bilan uni qadimiy teri tasavvurini berish mumkin.

F. Shillerning «Mariya Styuart» spektaklida rassom B.R. Erdman bezatgan «Yelizaveta kabineti» ko'rinishi e'tiborimizni tortadi. Rang yechimlari, derazaga o'rnatilgan vitrajlarning tabiiyligi davr ruhini shunday ko'rsatib turadi. Ularda turli nishonlar o'z aksini topgan. Kabinet bezagi Britaniya qirolligi qudrati, boy liboslari va saroy jihozlari qirolichaning hukmfarmonligi xususiyatiga ko'ra bezatilgan. Vitrajdagi oynalar ham tasviriy hisoblanadi. Bunda ramkaga tortilgan shaffof, rangsiz poliamid plyonka PK-4 dan foydalanilgan.

Qog'oz shablon asosida plyonkaga rangli tasvir tushiriladi. Rangli «oynalar» shaffof bo'lishi uchun plyonkaga rangsiz lak aralashtirilgan anilin bo'yoqdan foydalaniladi. Grafik tasvirdagi «ayrim oynalarni» tutib turuvchi qo'rg'oshin alumin kukuni qo'shilgan moybo'yoq va lok bilan tasvirlanadi.

O'rta asrlardagi vitrajlarining rangli oynalari note-kis, to'liq-to'liq yuzaga ega bo'lganligi sababli ular-dan o'tgan yorug'lik tekis tushmagan, xona ichida qu-ruq mato singari ko'rinish hosil qilgan. Yorug'lik turli shaklda tushib, bino ichiga o'zgacha sirli ruhiyat baxsh etgan. Shuning uchun bu oynalar tasvirlanayotganda ayrim qismlari bir rang bilan yaxlit bo'yalmagan, bir tusni kuchaytirib yoki susaytirib tasvir etilgan.

Moskva badiiy akademik teatri sahnasida A.N. Ar-buzov pyesasi bo'yicha «Tungi ibodat» nomli spektakl qo'yilgan.

Rassom A.D. Goncharov bosib olingan janubiy-g'ar-biy shaharchadagi nemis komendanti kabinetini ibo-datxona binosi ichiga joylashtiradi. Shu yo'l bilan ras-som pyesa muallifi birinchi bo'limdagi «Nemis komen-danti kabineti» sharoit ramkasini kengaytiradi. Rassom fikriga ko'ra komendant avvalgi omadsiz aktyor, u san'atni sevadi, o'zi uchun ma'lum san'at muhitini ya-ratadi va Ibodatxonadan o'zi uchun kabinet ajrattiradi. Rassom bu bilan o'zini o'ta xudojo'y qilib ko'rsatishga intilgan gitlerchilar ibodatxonani kazarmaga aylantirib yuborishi mumkinligi, xohlasa o'g'irlashi, evakuatsiya paytida nemis askarlari san'at ishqibozi bo'lgan komen-dant buyrug'i bilan ibodatxona ichidan haykalchalar olib chiqib ketayotganligini tasvirlaydi. Ibodatxona qa-dimiy. Uning g'adir-budir, qoramtir devorlari bundan darak beradi. Yillar osha yashab kelayotgan, vaqtincha yashayotganlarga unsiz qarab turgan, sovuq va viqorli devorlar savlat to'kib turibdi.

Rassom Goncharov devor fakturasini eskizda emas, balki maketda aks ettirdi, so'ngra devor kattaligida bajarildi. Maketda devor yuzasi qoradan kulrang tus-ga tomon bo'yalgan g'ijimlangan metall qo'rg'oshin qog'ozdir. Sahna uchun toshni tasvirlash ko'p mehnat-talab ish bo'lib chiqdi, chunki bezakni tashishda imkon qadar yengil bo'lishini hisobga olish zarur edi. Shuning

uchun baland devorlar paxta mato tortilgan va ushbu spektakl uchun zarur bo'lgan faktura asosida applikatsiyalangan yog'och ramkalardan iborat bo'ladi.

Bu faktura quyidagicha ishlov berilgan qora rangli dokadan iborat. Yaltiroq taglikka yoyilgan doka PVA emulsiyasi bilan qoplanadi. Doka tunukaga yopishib qolmasligi uchun avvaldan mum surtib qo'yiladi. Emulsiya yupqa dokadan o'tadi va taglik yuzasida tekis qatlam hosil qiladi. Quriganidan so'ng taglikdan ajratib olingan material tashqi ko'rinishiga ko'ra umuman yangi matoni hosil qiladi. Emulsiyaga alumin yoki bronza kukuni va qo'shilgan anilin bo'yoqlari tufayli mato metallga laklangan teriga o'xshab qoladi.

Mazkur holatda qo'lda ezib g'ijimlangan doka tekis matoga tikilgan, bu tosh devorning haqiqiy ko'rinishini hosil qiladi. Yuzaning ayrim joylariga bo'yoq sepiladi, bo'rtma joylari belila va alumin kukuni bilan biroz oqartiriladi. Devorlar qoramtir kulrang rangda bo'ladi, shunga ko'ra sovuqlik, notinchlik hissi uyg'otiladi.

Pardaning so'nggidagi ko'rinishi ham paxta matoni jilvirlangan doka yordamida applikatsiyalash usulida ishlangan.

Turli fakturalardan boshqa spektakl va teatrlarda ham keng foydalanilgan.

M.R. Rauxvergerning «Qor malikasi» opera va balet spektakli qo'yildi, bezak eskizlari rassom V.Ya. Levental tomonidan ishlandi. Bu spektaklga yumshoq bezaklarga ishlangan ko'plab oynalarining rangli oynasini tasvirlovchi material asarni bezashda asosiy o'rin tutdi.

Birinchi ko'rinish. Qish. Shahar tomlariga qor yog'moqda. Yerda qor tobora qalinlashayapti, ammo yuqorisi qirrali derazalardan yorug'lik tushayapti. Ularning ortida ertaklardagidek issiqqina uylar, ajoyib kishilar, osoyishtalik hukmron.

Har bir katta-yu kichik oynalar ranglari va ularning yumshoq tuslari shinamlik ruhini bag'ishlaydi,

ularning barchasi bolalarni bo'lib o'tadigan voqeaga tayyorlaydi va qiziqishini orttiradi, o'z tengdoshlari taqdirini ko'rishga oshiqadi. Uylar derazasi ishlangan materiallar Qirol saroyi zallaridagi vitrajlarga ham tortilgan va qasr xarobasidagi butun qolgan derazalarda ham bor.

Bunday «oynalar»ning tayyorlash texnologiyasi unchalik murakkab emas. Avvalgi holatdagidek organik oyna, oq tunuka ustiga avvaldan parafin surtib tyul matosi yoziladi, ustidan PVA emulsiyaga turli bo'yoqlar qo'shib beriladi.

Emulsiya tyul orasidan o'tib yaltiroq yuzali tekis plyonka bo'lib qotadi. Bu fotolarni jilvirlash jarayoniga o'xshab ketadi. Tyul yuzi jilosi taglik jilosi darajasiga bog'liq.

Taglikdan chiqarib olingan quruq material tyul matosi bilan mahkamlangan plyonkaga o'xshab qoladi, uning minglab egilgan linzalari unga qaratilgan nurni maydalab deraza orqali yoritilayotgan transporantni ajoyib rangdorligini ta'minlaydi.

Ushbu spektaklda metall lavsan plyonka o'z afzaligini ko'rsatdi. «Qirolicha saroyi» kartinasida qora duxoba bilan tortilgan daraxt qubbasi katta sumalaklar tarzida jilolanib turadi, bunda ularni olmos singari yaltirab turishga erishilgan.

Maketda muz sumalaklar duxobaga yelimlangan haqiqiy oyna bo'laklari orqali tasvirlangan. Ammo ulardan sahnada foydalanib bo'lmaydi. Shu paytning o'zida nihoyatda yaltiroq teatr fakturasi bo'lgan kumush postal tegishli samaraga erishish uchun yetarli bo'lmadi. Bir tomonidan sanoat usulida metallashtirilgan lavsan plyonka muzning sovuq yaltirashi hissini berdi.

Qalinligi 5–12 mikron bo'lgan bu plyonka tortilganda ham mustahkam turaveradi. Undan qirqib olingan parchalar PVA-emulsiya yordamida duxoba fonga yelimlanadi.

Metall plyonka bilan moslashuvi natijasida turli jihatdagi kumush jilolalar berdi. Plyonka yelimlanganda uning yana bir bezak xususiyati aniqlandi, ya'ni plyonka tikkayib qolgan joylarda matoga tikilgan yaltiroq toshlar tasavvurini berishi mumkin ekan. Bu zarur vaqtda qimmatbaho yoki sun'iy oyna, billur o'rnini bemalol bosishi mumkin.

«Qor malikasi» spektaklida bu plyonka bilan balet liboslari ham bezatildi, ular balerinlarning ozgina harakati bilan engil silkinib yanada yaltiroqlik samarasini berdi.

Hozirgi paytda teatrlarda «oltin» va «kumush», shuningdek, rangli poligrafik plyonkadan unumli foydalanilmoqda. Bu plyonka jilosiz tomoni bilan PVA emulsiyasi yordamida mato, to'r, pape-mashe kabilarga yelimlanadi. Plyonkadagi emulsiya yuzaga yopishadi, so'ngra undan shaffof plyonka oson ajraladi. «Ivan Grozniy» balet spektakli ham shu usulda yaltiroq bezaklar bilan bezatilgan.

D. Puchchinining «Chio-Chio-san» operasini badiiy bezashda rassom V.Ya. Levental ajoyib materiallardan foydalandi. Xususan, yapon uylari devoriga bez va polixlorvinil plyonkasi tortildi, ularga gorizantal chiziq chizildi. Yigirmadan ortiq bunday devorlar xira oq, biroz marvarid rangini beradi. Bu Chio-Chio-sanning baxtli kayfiyatini ifodalashiga xizmat qilgan.

Ayni paytda xona poliga mato asosli qora lokli material tortilgan, sanoatda u loklangan charm o'rniga ishlab chiqariladi. Lokli qoplamni eslatuvchi yaltiroq qora klyonka uyning omonatligi, mustahkam emasligini ko'rsatadi, qimmatbaho ashyolar saqlanadigan chiroyli bezakli shkatulka xissini beradi.

Ma'lumki spektaklni bezashda turli arxitektura qismlari, o'yma bezaklar, mayda relyef, g'isht devorlar, daraxt po'stlog'i kabilarni tayyorlash ko'p vaqt talab qiladi.

Zavodda ishlab chiqarilayotgan yaxlit va plyonkali plastmassalar turli xususiyatga ega. Ulardan sahnada foydalanishda yong'in xavfsizlik xususiyati birinchi o'ringa qo'yiladi. Qattiq, shaffof, yorug'lik o'tkazadigan viniplastdan keng foydalaniladi. Termoplast material hisoblangan plyonkani 100–130° da 15–20 sekund qizdirib tegishli shaklga keltirish mumkin. Sovuganda u berilgan shaklni saqlab qotib qoladi.

Yonmaydigan boshqa plastmassa turlari ham bor. Ekstruzion viniplast, viniproz, surma qo'shilgan polixlorvinil plyonka va shaffof efiroseilyuloz etrol shular jumlasidandir. Ulardan eng ko'p tarqalgani viniplast plyonka hisoblanadi.

FAKTURALI BEZAK QISMLARI YARATISH

Teatr sahnasida turli moddiy yuzalarni hosil qilish usullari mavjud. Bezaklar haqida gap ketganda butaforiya, mebel, rekvizitlarni ham yodda tutish zarur. Chunki har bir bezak qismi umumiy obraz mohiyatini ochib berishga xizmat qilishi kerak.

Mebel, butaforiya va rekvizit spektaklning umumiy tasviriy jihatini hisoblanadi. Masalan, spektakl qahramonlari uzum yetishtirish haqida gapirayotgan bo'lsa, ularning qo'lidagi uzum shingili haqiqiyga o'xshagan bo'lishi kerak. Bu holatda rassom va butafor jelatin va stearindan meva tayyorlashni bilishi kerak. Shunda uzum shingili allaqanday paxta tiqilgan mato bo'laklari emas, sahnadagi aktyor qo'lida shaffof jonli uzum shaklida ko'rinadi.

Dramatik va opera sahnalarida saroy xonalarini bezashda qandillar katta o'rin tutadi, ular xonalarning dabdabali ko'rinishini ta'minlaydi. R.K. Shchedrinning «Anna Karenina» baletini bezashda foydalanilgan «bilyur» qandillar nihoyatda chiroyli ishlangan. Spektakl-

dagi besh qandil (ularning karkasi «bronza», ko'plab «billur» osilmachoqlar) xuddi haqiqiyga o'xshaydi.

Metall rux to'r tortilgan karkasning yupqa devorli po'lat naychalar, shaffof organik oynadan kesilgan, bu to'rga sim bilan mahkamlangan osilmachoqlar, so'ngra yaxlit latunga zarb bilan ishlangan o'yma bezaklar, emal bilan bo'yalgan shamlar qandilning haqiqiy ko'rinishini namoyon qiladi va o'zaro uyg'unlashib muhim badiiy bezak qismini yaratadi.

Shu bilan birga bu ko'rinishni yengil tasviriy-shakliy yuzalar, ya'ni chiroyli zal devorlari bilan badiiy bezash tomoshabinni kiborlar uchun o'tkaziladigan balni tasavvur qilishga yetaklaydi, qandillar uning sahnaviy obrazi gultoji bo'lib qoladi, boyitadi va go'zallashtiradi. Albatta teatrda materiallarga ishlov berishning u yoki bu usulini qat'iy qonunlashtirib bo'lmaydi. Rassomning har bir yangi ishi shakl tanlashga, ashyolar sifatiga yangicha yondashuvni talab qiladi.

Spektakldagi rang, tasvir, kompozitsiya va shakllar kabi tashqi jihatlarni spektaklning g'oyaviy mazmuniga uyg'un holatda hal etish teatr rassomining mahoratini belgilovchi omil hisoblanadi va ijodiy fantaziya uning asosiy quroli bo'lib qolishi kerak.

TASVIRIY BEZAK MATERIALLARI HAQIDA TEATRDA BEZAK TAYYORLASH USULLARI

Haqiqiy san'at asari uni yaratgan rassomning ichki qiyofasi va qalbini aks ettiradi. Zero «qalb» narsada konkretlashadi, rang, chiziq, shakl, hajm, makon kabilarda o'z aksini topadi. Teatr rassomining faoliyati ko'p qirrali va murakkab hisoblanadi. Rassom o'tmish va hozirgi zamon moddiy madaniyatining tarixan shakllanib kelgan qatlamlarining bilimdoni bo'lishi zarur.

U qalamtasvirchi va rangtasvirchi vazifasini bajarishi, me'mor singari makonda ishlay olishi kerak. U yaratilajak spektaklning obrazlarini aniq tassavvur etishi zarur bo'ladi. Teatr san'ati jamoa mehnatini talab etadi. Shuning uchun bastakor, dramaturg, baletmeyster kabi ijodkorlar oldida turadigan har qanday muammo teatr rassomi uchun ham taalluqli bo'ladi.

Badiiy jarayonni qamrab olgan umumiy san'at nazariyasida badiiy obrazni yaratishga ta'sir qiluvchi ijodning u yoki bu xususiyatlarini belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Teatr bezak san'atida spektakl yaratishda foydalanish zarur bo'lgan bezak materiallari ning o'rni va tabiatini belgilash ana shunday xususiyatlardan biridir.

Teatr bezak san'ati tarixi va amaliyoti spektakllarni bezash borasida katta tajriba to'plagan, ulardan zamonaviy rassom ham erkin foydalanishi mumkin. Spektakldagi adabiy va musiqiy g'oyani ochish uchun teatr rassomi foydalanadigan ashyoviy asosni diqqat bilan o'rganishi zarur.

Qanday bo'lishidan qat'iy nazar, barcha spektakllar vaqti kelib sahnadan tushadi, ammo ularning barchasi teatr bezagi san'ati tarixida u yoki bu badiiy texnologik yo'nalishni o'zlashtirish, rivoji va tanazzuliga misol bo'lib qoladi.

Zamonaviy teatrda rassom ijodi mavjud teatr bezagi bazasidagina emas, balki ijodiy fantaziya hamda fan va texnikaning yangi yutuqlarini teatrda qo'llash orqali takomillashtirilgan cheksiz imkoniyatlar asosida rivojlantiriladi. Shuning uchun teatrda ishlayotgan rassomning ixtisos bo'yicha bilimlari ijtimoiy, texnik va ilmiy taraqqiyot sohalaridagi bilimlari bilan ham boyib borishi zarur.

Badiiy ishlov berish jarayonida ma'lum xususiyatga ega bo'lgan materiallar spektakl g'oyasini ochib beruvchi rejissorlik to'xtami va moddiy bezash vositalarining

o'zaro aloqasi haqidagi tasavvurni kengaytirish imkonini beradi.

Spektakllarni yaratishda rassomlar rejissorlarning hammuallifi bo'lib qolayotganligi ularning iqtidori va ishlash qobiliyati bilan izohlanadi. Rejissor bilan bir qatorda asarning g'oyaviy mazmunini anglash, uni tomoshabin ongiga yetkazish rassom faoliyatida muhim o'rin tutadi.

Rassomlar ijodining o'ziga xosligi spektakllarni bezash uchun materiallar tanlashi, qo'llayotgan texnologiyalarining zamonaviyligi bilan uzviy bog'liq. Yorqin obraz yaratish uchun rassom turli vositalardan foydalinishi mumkin. Ushbu materiallar aktyorlarning bevosita yordamchisi hisoblanib, tasavvurga boy bezaklar spektaklning g'oyasi va mohiyatini yaxshi ochib berishga, sahna asariga yuklatilgan vazifani tushunishga yordamlashadi.

Tabiat va sanoatda yaratilgan u yoki bu ashyolarga estetik bahoni faqat inson beradi. Shuning uchun rassom materialni tanlayotib, uning ijtimoiy ahamiyati va mohiyatiga, badiiy obrazni ochib bera olishlik imkoniyatiga, tomoshabinda ma'lum hislar uyg'ota olish xususiyatiga e'tibor beradi. Narsalarni sirli jihatini ochib berish materiallar bilan ishlayotgan rassomning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tarixiy tajribalar jarayonida har bir predmet o'z ijtimoiy mohiyatga ega bo'lib, shu asnodan, u haqida faqat bir kishining emas, balki ko'pchilikning nuqtayi nafari hosil qilinadi. Mana shunda teatr rassomi sahnada u yoki bu bezakni joylashtira turib tomoshabinning ma'lum munosabatini kutadi, bu munosabatlar rassomning o'zi his qilgan hodisalarga mos kelishi kerak.

Tabiiyki, teatr rassomi materialni tanlayotib uning afzalligini ko'rsatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymasligi kerak. U mazkur material yordamida obraz yaratishi, bezak qismlarini joylashtirishi va spektaklning g'oyaviy

mazmunini ochib bera olishi zarur bo'ladi. Bunda rassom bezak san'ati tomoshabinni faqat estetik tarbiyalash vositasigina emas, balki xalqlarning moddiy madaniyati bilan ko'rgazmali tanishtirish vositasi ekanligini yodda saqlashi zarur. U yoki bu talabga javob bermaydigan materialga duch kelgan rassom ba'zan unga zaruriy shakl, rang berib o'zgartirib yuboradi. Bu holatda u o'zining to'plagan tajribasiga tayanib materiallarga ishlov berishning turli usullarini qo'llaydi. Rassom materialni qanchalik yaxshi bilsa, his qilsa, uning imkoniyatlarini yaxshi biladi va unda badiiy ko'rinishlarni ko'proq hosil qilishda foydalana oladi.

Ushbu qo'llanmada tasviriy va hajmli bezaklar, turli shakllar, shuningdek mustaqil ifodaviy shaklga ega bo'lgan bezaklarni yaratishda foydalaniladigan materiallar haqida ayrim misollar beriladi.

Shuningdek, qo'llanmada spektaklning g'oyaviy-badiiy mazmunini ochib berishda zarur bo'lgan materiallarning xususiyatlari, ulardan bezaklar tayyorlash sohasidagi texnologik usullar to'la ochib beriladi.

Teatrda olib boriladigan ijodiy faoliyatning asosiy xususiyati shundaki, bunda faqat to'plangan tajribani emas, balki fantaziyani ham ishga solish zarur bo'ladi. Ushbu risola teatr rassomlari va boshqa teatr mutaxassislariga amaliy qo'lanma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

TASVIRIY BEZAKLARDA SHAKL VA ASHYOLAR

Hozirgi vaqtda spektakllar uch xil: tasviriy, hajmiy, konstruktiv usulda bezatiladi. Albatta, ular sof holda emas, balki bir-biri bilan uyg'un holda qo'llaniladi.

Bu bezatish usullarida materiallarning ahamiyati turlicha bo'ladi. Uch o'lchamli va hajmli butaforiyalarni tayyorlash, shaklli ramzlardan foydalanish chog'ida materiallar miqdor va sifat jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Teatr rangtasviri qudratli vosita hisoblanadi. Uning yordamida yuksak darajadagi badiiy ifodiylikka, teatr bezagi sifatiga erishiladi. Mahoratli rangtasvirchi rassom bo'yoq, chiziqlar, applikatsiyalar yordamida binolarning tasvirini hosil qiladi. Shu bilan tomoshabin ko'z oldida mahobatli zallar, qo'rqinchli g'orlar, tabiatning u yoki bu ko'rinishi paydo bo'ladi. U moddiy madaniyatning boyligini, rang va nurning imkoniyatlarini ko'rsatib, turli hajm va zaruriy shakllarni hosil qiladi.

Boshqacha aytganda, rangtasvir rassomga haqqoniy voqelikni ko'rsatish, makon, hajm kabilarni modellash-tirish imkonini beradi. Spektakllarni tasviriy bezashda asosan chizma va rang vositalaridan foydalaniladi. Ular sahnada osilgan, tortilgan karkas va ramka holatida joylashtiriladi. Teatrda bezakni rangtasvir yordamida bajarish ham chizmada, ham rangda perspektiva qonuniyatlaridan foydalanishga asoslanadi. Shu bilan hajm, ya'ni uch o'lchamli predmetlar ko'rinishi hosil qilinadi.

Rangtasvir orqa va yon kulislar bulut, daraxt, bino devorlari, ustunlar, haykallar tasvirini hosil qilishga imkon beradi, ular tasvirlanayotgan ashyolar shakli, yorug'lik-soya yordamida shakllantiriladi. Sahnada rangtasvir orqali suvoqlari to'kilgan g'isht devorlar, saroy marmarlari, idishlar, devorga osilgan kiyimlar tasviri hosil qilinadi.

Bulut, daraxt, bino devorlari, ustunlari, haykallar tasvirlangan sahnaning orqa va yon tasviriy pardalari rassomlar tomonidan realistik usulda chiziladi, tasvirlanayotgan predmetlarning soyasi, shakli aniq beriladi, suvog'i to'kilgan devorlar, saroy marmarlari, javonlardagi idishlar, devorga osilgan kiyimlar jonli tasvirlanadi.

XVIII asrda bezaklar yaratilgan materiallarni tasavvur qilib ko'raylik.

Tik qilib osilgan mato yuzasi tasvir uchun asos vazifasini o'taydi. Ammo yassi bezaklar mizansahna-

sini yaratish xilma-xilligi yetarli bo'lmaganligi uchun bezaklarning katta hajmdagi ko'rinishlari ham yasalgan. Masalan, graf Shermetov teatrlari, xususan Ostankino teatrida u yoki bu spektakl uchun tayyorlangan qadimiy bezaklarning asosiy qismi, shuningdek, katta hajmlari ham yog'och, mato, qog'oz kabilardan yasalgan. Taxtadan zina va ayvonlar, qog'oz qoplangan yog'ochdan qasr ustuni va devorlari tayyorlangan. Maxsus uskunalar yordamida dengiz to'lqinlari harakatga keltirilgan. Murakkabroq qurilmalar va bo'rtma yuzalar ham qog'oz qoplangan yog'och karkaslardan hosil qilingan. Barcha qo'lbola ashyolar va qog'ozni yelimlab hosil qilingan bezaklarga ma'lum shakl berilib, mos qilib bo'yab chiqilgan.

Kibor tomoshabinlarga yaqin turadigan parda va to'siqlar mato va qog'ozdan emas, balki atlas, duxoba, shoyi kabi matolardan tikilgan. Butaforiya va anjomlar materialining tabiiyligi, bezaklarning rang-barangligi bilan hayratga soladi. Ayniqsa, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan, tilla suvi yuritilgan qurollar, shuningdek, qizil, yong'oq va boshqa qimmatbaho daraxtlar yog'ochidan tayyorlangan mebellar e'tiborni tortadi.

Tasviriy bezak asosiy bezak o'rnini bosadi. Tasvir tushirilgan kulis va orqa pardalar o'zlashtirilishi bilan tomoshabin ko'z oldida ajoyib qasrlar va vayronalar, mahobatli arkalar va salobatli haykallar, qalin daraxtzorlar singari harakat o'rinlari namoyon bo'ladi. Bularning barchasi nozikta'b tomoshabinga hajmli shaklda namoyon etish uchun tabiiy ko'rinishda tasvirlanadi.

Bunday ko'rinishlarning bezakdorligi yaqqol sezilib turadi. O'sha davrda opera yoki baletning eng qaltis dramatik voqeasini aks ettiruvchi tasvirlar ham bo'lgan. Bularning barchasi rassomning mahoratiga bog'liq edi.

Bir-biriga nihoyatda mahorat bilan uyg'unlashgan holda turli bezakli mato tortilgan. Ostankino teatrining bezakdor shift devorlarining hozirgacha saqlanib qol-

gan ko‘rinishidagi sahna yog‘och qurilmalarining sifati va rangtasvirchi rassomlarning mahoratidan teatrlarning mavqei haqida fikr yuritish mumkin. Odatdagi paytda bu katta zal arxitekturasining shifti hisoblanadi. Markaziy mato teshigidan zanjir tushirilgan, unga katta qandil o‘rnatilgan. Sahna poli parter darajasiga tushirilgan, teatr sahnasi tasavvuri yo‘qotilgan, shuning uchun zal tantanali qabul marosimi, bal va boshqalar o‘tkazadigan joyga aylangan.

Spektakl yoki biron-bir ashyoning ruhiy ta‘sirini yanada kuchaytirish uchun albatta, ham sahnalashtiruvchi, ham rassomning fantaziyasi zarur bo‘ladi. Rassom spektaklni bezashda ma‘lum bir ma’noga ega bo‘lgan hajmiy, moddiy yoki tasviriy jihatga tomoshabin e‘tiborini qaratadi.

K.S. Stanislavskiy shunday degan edi: «Rejissor sahnasi va aktyor roli realistik, shartli, turli yo‘nalishda bo‘lsa ham, u impressionistik yoki futuristik bo‘lsa-da, ular haqqoniy, chiroyli hamda badiiy jihatdan yuksak bo‘lishi, insoniy ruhni to‘laligicha berishi shart. Buzsiz san‘at bo‘lmaydi. Bu talablarga javob bermaydigan shartlilik ahmoqona shartlilik hisoblanadi». Har qanday usullarni qolipga solish san‘at uchun yot narsadir. U ijodiy tafakkurni bog‘lab qo‘yadi, rassom fantaziyasini chegaralaydi. Oxir oqibatda, o‘zlikni ifodalashni bir qolipga solib qo‘yadi, har qanday san‘atning, shuningdek, teatr san‘atining ham obrazli tabiatiga putur yetkazadi.

Tasviriy bezaklar matoga rang berish usuli bilan hosil qilinadi. Negaki tasviriy bezak uchun qimmatbaho matolar va boy bezaklardan foydalanish shart emas. Bu spektaklda yassi bezaklardagi jihatlarning mo‘lligi, shakl va ranglarning uyg‘unligi yordamida uning mazmuni ochib beriladi. Narxi arzon matolarga boy rang va bezak jilolarini berish yo‘li bilan keng hajmdagi tasviriy samara olish mumkin. Sahnani yorqin ranglarda bezatilishi ko‘pincha spektaklning fojiaiy mohi-

yatiga mos kelib, ro'y berayotgan hodisalarning dramatikligini kuchaytiradi.

Badiiy obraz yaratishda tasviriy asosga qurilgan spektakllarda rassom tomonidan rang va tasviriy bo'yoqlar orqali emotsional ifodaviylikni talqin etish uchun mato yoki kanop material zarur bo'ladi. Chunki aynan shu matolar o'zining shaklan o'zgaruvchanlik xususiyatiga ko'ra ularga mo'yqalam yordamida berilgan bezaklarni uzoq yillar saqlay oladi.

Rang samarasini olish uchun bo'yoqlarni tanlash va aralashtirish qoidalariga o'xshash tasvir uchun asos bo'ladigan matolarning eng maqbulini tanlash davom etmoqda. Shunga qaramay hozirgi vaqtgacha ham rassom asosan taglik uchun qaynoq suvda eritilgan un, bo'r, yog'och yelimi va sovun, tasvir uchun eritilgan yelimga aralashtirilgan mineral bo'yoqlardan foydalanib kelmoqda.

Bugungi kunda har qanday teatr arbobi uchun shu narsa ayonki, rejissorning fikri va pyesaning asosiy g'oyasini ochib berish spektakl bezaklari bu g'oyaga qanchalik mos kelishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Ma'lumki, rassom o'z hissiyotlarini ishonchli tarzda ochib berish uchun hatto rangda ham hayot haqiqatidan chekinishi mumkin. Ammo u bunda mazkur asarning kayfiyatini ifodalash zaruriyatidan kelib chiqishi, o'zi ko'rib bilganlarini emas, balki o'zi his qilayotganlarini, tasvir bilan tomoshabinda qanday hislar uyg'otishini ifodalay olishi lozim. Hozirgi paytda rassomlar spektakllarning tashqi shakliga tasviriy yondashuvga asoslanib faqat rangtasvir bilan chegaralanib qolmayaptilar, balki bezaklarni turli shakl va hajmli qismlar bilan boyitib, sahna ashyolaridan keng foydalanayaptilar. Sahnashtiruvchi rejissorga dinamik, ko'pqirrali harakat yaratishga yordam berayapti.

Rangtasvirning boy tasviriy vositalaridan foydalanib rassomlar bezaklarning tasviriy va hajmiy-plastik tamo-yillarini uyg'unlashtirishga harakat qilmoqdalar.

Shu o'rinda bezaklarni tasviriy usulda yaratishning yana bir qiziqarli jihati applikasiya haqida aytib o'tish lozim. Ma'lumki, yelimli bo'yoq bilan ishlangan (guash kam qo'llaniladi) bezaklar rang-barang bo'lishiga qaramay, vaqt o'tishi bilan rangi o'chib ketadi. Bunga teatr bezaklari uchun mo'ljallangan matolarga diammoniy fosfat ammoniy tuzlar suvda eritilib yong'inga qarshi singdirilgani sabab bo'ladi. Ranglar yorqinligini yo'qotmasligi uchun rassomlar applikasiyaga murojaat qila boshladilar.

Odatda, rangtasvir uchun foydalaniladigan matolar unga asos bo'ladi. Ranglash ishlaridan so'ng asosga turli fakturaga ega bo'lgan (atlas, duxoba, turli to'rlar, parcha kabilar) materiallardan applikasiyalar yopishtirib chiqiladi. Ular bir xildagi anilin bo'yoq qorishmasida bo'yalsa-da, turli xildagi ranglar jilosiga erishish mumkin. Chunki ularning yuzasi rang-barang bo'lganligi tufayli yorug'likni turlicha qaytaradi, natijada, tus yorqinligiga erishiladi yoki uning jilolari hosil qilinadi.

Applikatsiyalash usuli bilan bezakning ayrim qismlarida yangicha bo'rtma shakllar hosil qilish mumkin, faqat bo'yoqning o'zi bilan bunga erishib bo'lmaydi. Rang-barang va turli xilda bo'yalgan mato bo'laklaridan foydalanib, rassomlar rangtasvir ishlangan orqa pardalar, kulislarga applikasiya yopishtirmoqdalar. Ularni mahkamlash uchun faqat ipdan emas, balki matolarni tez, ishonchli yopishishi uchun polivinilatsetat emulsiyasidan (PVA-emulsiya) foydalanmoqdalar PVA-emulsiyasi va baliq yelimi qurigach, shaffof bo'lib qoladi, matoda hech qanday dog' qoldirmaydi. Bu teatr bezagi rangtasvirida muhimdir.

Bezakchi rassomning ishi odatda bezaklarni applikasiylanidan keyin ham tugamaydi. Negaki applikasiya ustidan orqa parda yoki kulislarga qayta yoki qo'shimcha yelim bo'yoq berish zarur bo'ladi.

Sahna rassomi va ijrochilar topgan bu mustahkamlash usuli butun sahnani egallab turuvchi yumshoq tasviriy bezaklarga rangdorlik, shakldorlik va moddiy jihatdan haqqoniylik bag'ishlash uchun mutaxassislar qo'lida qudratli qurol bo'lib qoldi. Aynan mato yuzalarini applikatsiyalash usuli unda bo'rtma va hajm xususiyatlarni yaratish imkonini berdi, shuningdek, yoritilgan paytda orqa parda, kulis, padugalarni yetarli darajada shaffof yoki harir bo'lishiga erishildi.

Shaffoflikka erishish uchun asosan applikatsiya tagligiga tyul yoki teatr bezak to'ridan foydalanish tavsiya etiladi. Ayrim sahna rassomlari tasvirlarni moddiylashtirish uchun bu usulni keng qo'llaydilar. Orqa pardaning yoritilayotgan yoki qalin asosiga shakli va rangiga ko'ra turlicha matolar qo'yiladi. Bunda orqa yoki old tomondan yoritish ozroq o'zgarishi bilan faktura ham o'zgaradi.

Teatr tasviriy bezaklarini tayyorlashning bunday usulini to'la ma'noda tasviriy-applikatsiya usuli deb aytish mumkin.

S.B.Virsaladze bunday usulning boshlovchisi hisoblanadi. Katta teatrda P.I.Chaykovskiyning ikki ko'rinishli «Oqqush ko'li» (1969) baleti uning tomonidan bezatilishi misolida yuqoridagi usul ustida ishlash bosqichlarini ko'rib chiqamiz.

Rassom eskizi va u bilan hamkorlikda bezak maketlari tayyorlandi. Bo'lajak spektakl bezaklari tayyorlash uchun zarur hisonlangan materiallar ro'yxati tuzib chiqildi.

Oltin, kumush, qora va kulrang tuslardan iborat spektaklning orqa pardasi va kulislarning ranglar jilosi faqat rangtasvirdan emas, balki tyul, to'r, shoyi, barxit matolari, turli ranglardagi iplarni qo'llash yelimlangan yuzalarga bronza, alumin kukunlarini sepish orqali maketning o'zida ham chiroyli bezak samarasiga erishildi. Maketda faqat bir material – latun to'ridan

keng foydalanib bo'lmaydi. Maketda katagi 1 mm ga teng bu sim to'r 50x50 mm katakli to'qima teatr bezagi to'ri tushunchasini beradi. U ko'rinmaydigan qism hisoblanib, katta hajmdagi tyul, arxitektura binolarining applikasiya tasviri, daraxt shoxlari kabilarni tutib turishga xizmat qiladi. Ammo bu to'r to'qima spektakl uchun yog'och yelimga aralashtirilgan bronza kukuni bilan qoplanadi. U o'zining to'r xususiyati bilan spektaklda ishtirok etadi. Natijada, bezak quyidagicha hal qilindi: har ikkala ko'rinishda ham janr xususiyatidan kelib chiqib, sahna yuzasi to'la ochiq qoldirildi. To'rt alohida elementdan orqa parda yaxlit tizim tasavvurini beradi. Sahna tomonidan mato osilgan, unga rangtasvir yordamida «oltin» va «kumush» dog'lar berilgan. Bu mato har ikkala ko'rinishda ufq vazifasini o'taydi.

Birinchi ko'rinishda tomoshabin zali yo'nalishida tillarang bezak to'riga mahkamlangan tyuldan orqa parda osiladi. Unga applikasiya yo'li bilan qasrga kirish arkasi tasvirlangan. So'ngra yana avansahna yo'nalishda qasr, kenglik, daraxtlar, ko'l ko'rinishi bo'lgan tasviriy-applikatsiyali bezak to'rli ikkita tyul parda osiladi. Ikkinchi ko'rinishda oq matodan va yana ikkita tyuldan bezak to'rli orqa parda osiladi.

Bu ko'p qatlamli bezak uchun teatr tyuli, to'rli mato, baliq tutadigan to'r, shoyi, duxoba, lavsan, plyonka, shuningdek, unga o'xshash polietilentereftalat plyonka kabilardan foydalaniladi. Anilin bo'yog'i, bronza va alumin kukuni kabilarni bilan bo'yalgan bu materiallar orqa pardaning tyul-to'r asosiga ip yoki PVA emulsiyasi bilan mahkamlab chiqilgan.

Aslida turli matolardan bo'lgan bu parchalar badiiy applikasiya ishi tufayli ko'proq mato emas, balki san'at asari bo'lib qolgan. Ular ham shakl, ham rang jihatdan shunchalik uyg'unlashib ketganki, har qanday masofadan qaraganda go'zal ko'rinaveradi. Bezakli kulisning uchta plani ikki chokli qilib tayyorlangan

va barcha bezaklar kabi unga ham tilla-qora rang asos bo'lgan.

Bunda uchinchi plandagi kulislar chetiga tyul tikilgan, bu ularni orqa pardaga moslab yuboradi. Uzoq davom etgan ijodiy mehnat tufayli bezakning ertakona go'zalligiga erishiladi. Bunday bezakdan haligacha foydalanib kelinmoqda, u kamroq yoritilganda ham chiroyli ko'rinaveradi. Bunga uning rangdorlik holatigina emas, balki shakldorligi ham sababdir. Bu ko'rinish tomoshabinni hayratga solmay qo'ymaydi. S.B.Virsaladze A.I.Xachaturyanning «Spartak» baletini sahnalashtirishda ham shakldorlikka katta e'tibor berdi. Spektaklda taqdim etilgan antik Rim davrini rassom tarixiy voqealarning fojiaiy mohiyatini ochib berish uchun jonlantiradi. «Spartak» baletiga ishlangan bezaklar Rim qiyofasi va Italiya tabiatiga xos xususiyatlarnigina qamrab oladi. Tomoshabin e'tiborini faqat raqs va badiiy bezak plastikasiga qaratish uchun arxitektura bezaklari kiritilmaydi. Patriklarni sarkarda Kras huzuriga ziyofatga borayotgan sahnasida orqa parda va kulis saroy devori vazifasini o'taydi, vaqtlar o'tishi bilan g'adir-budir bo'lib ketgan g'ishtlar ko'zga tashlanadi.

Bu va shunga o'xshash bir qator fakturali kulis va orqa pardalar uchun qalinroq paxta matolardan foydalanildi, uning ustidan ip yoki yelim yordamida tyul, parcha, shoyi kabilardan applikatsiyalar yopishtirildi. Chizilgan va shakl berilgan yumshoq bezaklar yuzasiga tosh, to'siq singari qattiq narsalar tasviri tushirilgan. Ularning faner qoplami to'qima mato bilan yelimlangan va yirik tosh terilgan devor ko'rinishni beradi, maydaroqlari PVA emulsiyada aralashtirilgan yelim yordamida yopishtirilgan yog'och qipig'i bilan hosil qilingan, g'adir-budir tosh yuzasi mo'yqalam bilan ishlab chiqilgan.

Sahnalashtiruvchi rassomning bevosita rahbarligida «Spartak» baletiga tayyorlangan bezaklar bir qarashda

arxitektura bezaklari bo'lmasa-da, Rim imperiyasining qurilishlari va muhiti obrazini bera oladi. Bezaklar musiqa va raqs bilan birga insoniyat tarixida ro'y bergan fojia haqida so'zlovchi sahna mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Bunga kulrang-jigarrang, ko'k-kumushrang va qizg'ish-tillarang kabi bo'yoqlardan samarali foydalanish orqali erishilgan. Tutunli yorug'lik filtrlari bilan yoritish orqali ular nihoyatda uyg'unlashib ketadi.

S.B.Virsaladze bezaklar va liboslar tayyorlashda foydalangan bo'yoqlar va ularning tuslari haqida gap ketganda, ularning barcha turlarini nomlash ham qiyin. Asosiysi, ranglarning qaysi biri ustunlik qiladi va u yoki bu bezak yoki libosdan tomoshabin qanday taassurot oladi, ana shunisi muhim. Virsaladze asarlarida bo'yoqlar va materiallarning muvofiqligi – bu mozaikadir. Mozaikani matolar, ularning shakli, qachondir rassom e'tiborini tortgan rangi, turli qo'shimcha materiallar tashkil etadi.

Turli shakllardagi matolardan applikatsiyalardan rassom A.F.Lushin o'zining teatr bezaklarida keng foydalandi. Uning bu iste'dodi K.S.Stanislavskiy va V.I.Nemirovich-Danchenko nomli Moskva musiqali teatrida kompozitor T.N.Xrennikovning «Doroteya» komik operasini bezatishda aniq namoyon bo'lgan. Rassom keng shakldagi tasvirlar, arqondan kashtalar, atlas, qalin duxoba va paxta matolarning barchasi bilan samarali ishlaydi. Ularning birortasini isrof qilmaydi, bu matolar bir-birini to'latadi, bir-biriga uyg'un va qarama-qarshi bo'lgan ranglar orqali bezaklarning ma'dorligini ta'minlaydi. Bu operaning komediya xususiyatini ifodalashga yordam beradi.

Rassomning fantaziyasi alohida teatr dunyosini yaratadi, undagi bo'rttirish jihatlari Ispaniyaga xos bo'lgan arxitektura uslubi, bezaklarni to'sib qo'ymaydi. Uchayotgandek yengil matolar bilan boyitilgan intermediya pardasida O'rta asrlar binolarining tashqi yax-

lit devori aks etadi. Ularda turli balandlikda ochilgan derazalar turli panjaralar bilan qoplangandek manzaranani ifodalagan applikatsiyalar qo'llangan. Panjarani ochib, undan opera personajlari qarab turadi, ular spektakl boshlanishidan avval tomoshabinlarni o'z teatr dunyosiga taklif qilayotgandek, so'nggida esa kuzatib qo'yayotgandek taassurot qoldiradi.

Yuqorida eslangan teatr bezagi to'ri haqida bir nechta so'z. Bir qator teatrlarning bezak ustaxonalarida applikatsiya pardalari, kulislar, bargli arkalar uchun bezak to'ri mustaqil to'qiladi. To'rni to'qish uchun qalin va mustahkam paxtadan eshilgan ipdan foydalaniladi. Ko'pgina teatrlarda applikatsiya uchun kanop yoki kaprondan yasalgan baliq tutadigan to'rlar ishlatiladi.

Katagi 5x5 sm ga teng, diagonal bo'ylab ikkita ip o'tkazilgan bezak to'ridan farqli baliq tutadigan to'r turli hajmdagi kataklardan iborat bo'ladi. Ammo teatr ehtiyoji uchun 3x3 sm yoki 3,5x3,5 sm katakli to'r tanlanadi, negaki uning diagonal bo'lmaydi. Applikatsiyani ip bilan tikish uchun esa to'r asosini ma'lum o'lchamda bo'lishi talab etiladi.

Tik va bo'ylama iplarning boylangan tugunlari jilib ketmasligi uchun to'rni yerga yoyib turib, tugunlarga yog'och yelimi yoki PVA emulsiyasining suyuq qorishmasidan foydalaniladi. Qora, ko'k, moviy yoki boshqa rangdagi to'r olish uchun yelimga rang qo'shiladi. G.F. Gendelning «Alsina» nomli opera spektakliga ishlangan tasviriy hajmiy bezakni baliq tutish to'ridan foydalanishga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Operadagi voqealar sehrgar Alsinaning mulkida bo'lib o'tadi. Matoda tasvirlangan qasr devorlari bir-biriga tutashib yoysimon manzara hosil qiladi, uning ortidan qasr minoralari, tog' cho'qqilari va osmon ko'rinib turadi. Bu tasvirlar sahnaning keyingi planiga osilgan mato-ga tushirilgan. Ular «devor» o'rtasiga baliq tutadigan

katta to‘r tikilgani uchun ko‘rinib turadi, to‘r bezak rangiga mos bo‘yalgani uchun sezilmaydi. Orqa parda «devor» va «cho‘qqi, gumbaz»lar tasvirlari orasidagi masofa shunday yoritiladiki, bunda tasvir chekinib tumanga uyqashib ketadi.

Qasrning ichki xonasi devorini ifodalash uchun zarur bo‘lgan bu tasviriy qo‘shimcha spektakl bezagining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Butun bir tosh devorni ifodalovchi grafik tasvir orasiga osilgan katta to‘r ichki ko‘rinishni namoyish qilish imkonini beradi.

Tasviriy bezaklarda yarim hajmli relyef ham uchraydi. Qattiq qurilmalarda hajmni faner tortib, biror-bir shakl tushirib, pape-mashe yoki yonmaydigan plastmassa bilan ifodalansa, yumshoq bezaklarga qattiq murvatlar mos kelmaydi, negaki yumshoq bezaklarni saqlash va tashishda o‘raladi, ularga mahkamlangan qattiq bezaklar sinib yoki ko‘chib ketishi mumkin. Shuning uchun yumshoq hajm hosil qilishda olovdan saqlovchi suyuqlik shimdirilgan paxta qo‘llaniladi. Bir necha yillar ilgari relyef hosil qilish uchun qipiq, mo-chalka, kanopdan ham foydalanilgan edi. Ayrim hollardagina aniq bo‘rtiq qirra hosil qilish uchun olovdan himoya suyuqligi shimdirilgan parolondan foydalanish mumkin. Hajm hosil qilish uchun foydalanilgan barcha qo‘shimcha materiallar ustidan ham tanlangan mato tortiladi. Bu odatdagi bezak materiallari bo‘lishi ham mumkin, to‘qima matolardan ham foydalanish mumkin.

Rassom N.N.Zolotaryov bezagan J.Verdingning «Trubadur» spektaklidagi panorama hajmli applikatsiyadan keng foydalanishga misol bo‘ladi. Panorama sahnaning yettinchi planiga ilinadi va uch qismdan iborat bo‘ladi. Eni 36 m va balandligi 17 m bo‘lgan ikki qismi markaz bo‘ylab cheklangan cheti bilan ilinadi. Qoplama deb nomlangan markaziy uchinchi qismi 14x17 m hajmda bo‘lib, avvalgilaridan oldinda, markazda joyla-

shadi. Ikki qatlamli mato yuzaning asosi hisoblanadi, undagi relyefli applikatsiya maydonning 65 % ni tashkil etadi. Bo'rtiqning eng balandligi 15 sm ga yetadi, bu tog' tizmalari va cho'qqilaridir, o'rtacha relyef 7–8 sm balandlikda bo'ladi. Pastroq relyef panorama asosiga singib ketadi.

Panorama o'ragan holda saqlash sharoitidan kelib chiqib deyarli barcha relyeflar ip bilan tikib chiqiladi, faqat relyefning qirralari yelimlanadi. Relyefni to'latish uchun paxta tiqiladi, uni tortib qo'yish uchun esa qoplik mato, qora rangli qalin tyuldan foydalaniladi. Bezakdorrog' bo'lishi uchun bronza kukuni va metall plyonka qo'llash mumkin.

Panoramaning butun pasti bo'ylab radiusda qayirib qo'yiladigan po'lat quvurchalar uchun cho'ntak tikib qo'yiladi. Tog' tizmalari, cho'qqilari, tepaliklar, tog' yo'llarini tasvirlanishi spektaklni yanada ma'nolirog' qilib yuboradi. Spektaklni bezash chog'idagi mehnattalab ish o'z samarasini bermay qo'ymaydi, aks holda, rassom katta hajmdagi bezak tayyorlash uchun ko'p qismdan iborat bo'lgan qurilmalarga murojaat qilish kerak bo'lardi.

Yumshoq bezaklar yuzasida maydaroq bo'laklardan iborat relyeflar hosil qilish uchun keyingi bir necha yillar davomida revulteks, kvaliteks, reverteks navidagi tabiiy kauchuk lateksidan foydalanilmoqda. Ham tabiiy, ham sun'iy lateksning vulqonlash yoki quritish jarayonidan so'ng yuqori elastiklikka ega bo'lgan rezinkaga aylanishi va bu xususiyatini har qanday haroratda saqlab qolishi uning asosiy xususiyati hisoblanadi. Lateksdan iborat mahsulotlar gips shakllarga quyib olinadi, yuqorida nomlari keltirilgan lateks markalari gips shaklga quyiladi va qurigunicha unda qoldiriladi. 15–20 daqiqadan so'ng lateks cho'ka boshlaydi, ya'ni qalin qatlam hosil qiladi. Enlirog' quyma hosil qilish uchun bundan foydalanib qolish zarur,

ya'ni faqat shu qatlamni qoldirib ortiqcha lateksni quyib olish mumkin.

Lateksning sifatiga qarab undan quyib olingan bezaklar, ramzlar, tarixiy va ertakona liboslarning tabiiy qurishi 2 soatdan 15 soatgacha davom etadi. Shundan so'ng ular shakldan chiqarib olinadi, chetlari qaychi bilan tekislanadi, tegishli joyidan AK-88 rezina yelimi yoki lateksning o'zi ip bilan birlashtiriladi.

Albatta, sahnalashtiruvchi rassom pape-mashe usuli bilan tayyorlangan qismlar bilan ham cheklanishi mumkin edi, lekin revulteksning afzalliklari anchagina, negaki uning o'zidan minglab murvatlar tayyorlash imkoni bo'ladi, teatr ustaxonalarida ko'p qismlarni tayyorlashning imkoniyati yo'q. Bundan tashqari kauchuk quymalarining nihoyatda aniq bo'lishi va ulardan uzoq muddat foydalanish mumkinligi boshqa usullardan afzalligini ko'rsatadi. Muhimi ularga nam ta'sir etmaydi, mexanik urilishlarga uchramaydi. Ularni bezak rangida ham yoki boshqa faktura rangi va xususiyatiga ko'ra ham bo'yash mumkin.

Teatr rassomlarining kuchi bilan ko'p yillar davomida sahna yuzasi va yoritgichlari, bezaklar harakati va sahnani tamosha zali bilan tutashtirish, rassomlar va bezakchilarning sahnalashtirish vositalarini boyituvchi turli materiallardan foydalanish yo'llari qidirib topilmoqda. 1938-yili ajoyib rassom, opera spektakllari bezakchisi F.F. Fyodrov shunday yozgan edi: «Spektakllarni ark-kulis tizimida bezash davri o'tdi. Mening bishimcha sahna bezagining hoziri va kelajagi hajmiy-tasviriy tizimga bog'liq bo'lib qoladi. U rassom uchun cheksiz imkoniyatlar yaratadi». Spektaklning tashqi shaklini badiiy yechimining ushbu usulida shuningdek, hajm-qurilmaviy usulda ma'lum kayfiyat yaratish, spektakl g'oyaviy mazmunini ochib berish bo'yicha materiallardan foydalanishning yangi imkoniyatlari ochiladi.

HAJMLI BEZAKLARDA SHAKL TALQINI HAQIDA

Spektakllarning badiiy xususiyatini ochishdagi tasviriy-hajmiy va hajmiy-qurilmaviy usulda yasalgan bezaklar ko'pqirrali teatr ishlab chiqarishda katta ahamiyatga ega. Asosan ular ma'lum shaklga ega bo'lganligi tufayli faqat ko'rinibgina qolmay, moddiylik xususiyatiga ham ega bo'ladi. Shu munosabat bilan bezak yaratishda bu ishlab chiqarish jarayonining mavqei ortadi.

Odatda teatr sharoitida ishlash uchun tanlangan materialga sahna bezagi ashyosi orqali ishlov berilayotganda ma'lum shakl-shamoyil baxsh etiladi.

Bu jarayon turli darajadagi murakkablikda bo'ladi. Agar sahnalashtirish qismi bezaklardan foydalanish nuqtayi nazaridan kelib chiqsa va tanlangan material faqat tasavvur beradigan emas, balki yengil ham bo'lishi lozimligi nazarda tutilsa, spektaklni bezak bilan ta'minlashda rassom va rassomlar jamoasi qancha ter to'kib mehnat qilish zarurligini tasavvur etish mumkin. Materiallarni tashishda yog'in-sochinga chidamligi, bo'yoqni to'kilib ketmasligiga qo'yiladigan talablar ham muhimdir.

Bulardan tashqari foydalaniladigan materiallar yong'indan himoyalanganligining ahamiyati katta. Spektakl uchun ashyolar va turli materiallarni tanlashda rassom ularning sahnaga muvofiqligini e'tiborda tutishi lozim. Ma'lumki, hozirda mavjud materiallar va mahsulotlardan bir qator sabablarga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri foydalanib bo'lmaydi. Hayotda chiroyli ko'rinadigan ko'pgina narsalar sahnada joylashtirilganda tomoshabin ko'z oldida o'z xususiyatini yo'qotishi mumkin. Shuning uchun ular ma'lum spektaklga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda butaforiya usulida tayyorlanishi zarur. Bu, ayniqsa, qalamtasvir va shaklga tegishli. Rejissor va rassomni barobar qoniqtiradigan ashyolar va material-

larni, ya'ni davrni aks ettiruvchi spektakl uslubiga xos narsalarni topish qiyin. Bundan tashqari, tabiiy ashyolar, ya'ni haqiqiy oyna, haykal, qor, yog'och kabilardan sahnada foydalanib bo'lmaydi. Umuman haqiqiy fikuslar va palmalarga ega bo'lish ham shart emas, chunki ular ko'p mehnat va xarajatni talab qiladi.

Spektaklning tasviriy tomonini uch o'lchamli hal etilishida teatr rassomi faqat xarakterlarni ochib beruvchi eskiz suratlar va tasviriy bezaklar bilangina cheklanib qolmaydi. Endi rassom sahna bezagi maketini tayyorlaydi, u bezaklarning joylashuvi, ularning o'rnini almashtirish usullari, mizansahnalashtirish imkoniyatlarini beligalshga yo'l ochadi.

Tabiiy sahnaning 1/20 (1 m – 5 sm) yoki 1/25 (1 m – 4 sm) qismlarini tashkil etuvchi maketda eskizdagiga qaraganda bezaklar hajmi, rangi, materiali, ular qismlarining plastik munosabatlarini aniq belgilab olish mumkin.

Spektakl bezagi maketini texnik-texnologik nuqtayi nazardan muhokama qilganda asosiy aniq namunalarni ko'rib chiqish va tasdiqlash, shuningdek, ishlab chiqarish jarayoniga kiritiladigan ikkinchi darajali jihatlarni ham nazardan qochirmaslik lozim.

Teatr rassomi ko'rilgan obrazlar, spektakl to'xtamlari, ranglar muvofiqligi kabilarni hal etish orqali o'zining bilim zaxirasini orttirib borganidek, ishlab chiqarish sexi ishchisi ham sanoat fakturalari namunalarni saqlab qolishi va to'plashi, turli shakllarni ishlash usullarini yodda saqlashi zarur. Shunda u rassomga tayyorlanayotgan spektakl uchun zarur bo'lgan fakturalarni o'z vaqtida tanlab berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Sahnani tayyorlashda mahoratlar uyg'unlashuvi haqida shunday deyiladi: sahnada yiltirayotgan narsaning hammasi ham oltin emas, shuningdek, hamma narsa ham yiltirayvermaydi. Sahn sharoitiga moslashib, yax-


shilab jilvirlangan toshni, oddiy tugma, chig'anoq kabi-larni boshqacha boylik deb ko'rsatish mumkin, mayda kashtani marjon va dur bilan bezashda doiralash va bo'yash usullaridan foydalanish mumkin.

Shunga ko'ra, teatrda tomoshabin ko'ziga yasama xususiyatlar butaforiya o'rnida qo'llanilmaydi, aksincha, turli ijodiy talqinlar orqali spektakl uchun tayyorlanayotgan bezaklarning hayotiylikligiga erishiladi. Natijada tomoshabin uning yasama ekanligini xayoliga ham keltirmaydi, tayyorlangan bezaklar butaforlik mohiyatida qotib qolmaydi.


NAMUNALAR




Faktura. Tosh devor. II kurs talabasi Xudoyberdiyeva Nafisa



Nuragan g'isht fakturasi. II kurs talabasi N. Xudoyberdiyeva



Nuragan sinch devor fakturasi. II kurs talabasi N. Xudoyberdiyeva



Fakturada tosh g'or ko'rinishi. Eski zamon eshik. II kurs talabasi
Y. Biserova



Faktura. To'rga ishlangan applikatsiya pardasi. II kurs talabasi
B. Akromov



Matoga applikatsiya ishlash fakturasi. Bulutli osmon tasviri. II kurs talabasi
M. Ro'zmetova



Tyulga applikatsiya ishlash fakturasi. Tabiat manzarasi. II kurs talabasi
I. G'oi'pov



Tyulda iplardan ishlangan applikatsiya fakturasi. Sharshara.
II kurs talabasi. O. Namozov



Tyulga ishlangan applikatsiya fakturasi. Tabiat manzarasi. II kurs talabasi
N. Chepulskaya




Tyulga vitraj ishlash. III kurs talabasi. Ye. Biserova



Eskiz. Kiyim fakturasi. II kurs talabasi
Ye. Biserova



“Qadam” kino eskiz. O‘zbekiston xalq rassomi E. Kalantarov



“Qadam”. Kino eskiz. O‘zbekiston xalq rassomi E. Kalantarov



Teatr eskizi. Gyote. "Faust". "Optimik fojia"ga eskiz. B. Ibragimov

1. Акимов П.П. Театральное наследие. Л., 1978
2. Базанов В.В. Сцена, техника, спектакль. Л., 1965
3. Базанов В.В. Техника и технология сцены 1976
4. Базанов С.С. Техника сцены. Л., 1976
5. Барков В.С. Если есть на земле чудесное. М., 1968
6. Бассехес А.И. Художники на сцене МХАТ. М., 1960
7. Бассехес А.И. Театр и живопись Головина. М., 1970
8. Богомолова М.Т. Новые синтетические методикалы и пластмассы в театре. М., 1959
9. Богомолова М.Т. Сценическая техника и технология. М., 1966
10. Богомолова М.Т. Декорационные материалы-художникам театра. 1988
11. Богомолова М.Т. Коссаковский А.В. Бутафория школа изобразительного искусства Т.9. М., 1968
12. Вернер И., Коссаковский А., Крашенинников В. Театральная бутафория. М., 1952
13. Катаев А.А. Театральная бутафория. М., 1952
14. Сосунов Н.Н. От макета к декорациям. М., 1962
15. Сосунов Н.Н. Театральный макет. М., 1960
16. Abdumalikov Sh.R. Sahna texnikasi va texnologiyasi. T., O'zbek teatrlari haqida. 2009
17. Abdumalikov Sh.R. Iqtisod-moliya. T., 2009
18. Abdumalikov Sh.R. Kompozitsiya. Iqtisod-moliya. T., 2009



Sahna yuzasini badiiy bezash uchun faktura yaratish.....	3
Sahna pavilonlari yuzasini badiiy bezash uchun faktura yaratish.....	6
Fakturali bezak qismlari yaratish	12
Tasviriy bezaklar materiallari haqida.	
Teatrda bezaklar tayyorlash usullari.....	13
Tasviriy bezaklarda shakl va ashyolar	16
Hajmli bezaklarda shakl talqini haqida.....	30
Namunalar.....	31

Boltaboy Ibrohimov

TEATR FAKTURASI

TOSHKENT
«CHASHMA PRINT»
2009

Muharrir *I. Tursunova*
Rassom *B. Haydarov*
Sahifalovchi *G. Haydarova*
Musahhih *L. Xo'jayeva*

22.07.2009-yilda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84^{1/16}. Ofset usulida chop etildi. Shartli bosma tabog'i 2,79. Nashr-hisob tabog'i 2,7. Adadi 200 nusxa. Buyurtma №

«RELIABLE PRINT», 100129, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi, 2.